

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil).– 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Erkinov Alisher

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA
ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 5-8

Sheripova Mahliyo

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA
KOMIL XORAZMIY FENOMENI 9-14

Yusupov Xamdambek

XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYLLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI
MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR 15-19

Xo'jayeva Inobat

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA
BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK 20-26

Abdullayeva Shoxnoza

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB
NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI 27-32

Xakimov Mansurbek

OROL FOJIASI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO SIFATIDA 33-40

Xudoyorov Abrorjon

"XORAZM HAQIQATI" GAZETASIDA QISHLOQ MEHNAT AHLINING URUSH
YILLARIDAGI HAYOTI VA JASORATI MAVZUSINING YORITILISHI 41-43

Matchonova Nilufar

AMUDARYO HAVZASIDA IJTIMOYIY TARIX VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARNING
O'ZARO TA'SIRI: EFTALIYLLAR DAVRI ANTROPOGEN LANDSHAFTLARI VA
SOTSIO-EKOLOGIK MOSLASHUV (V–VI ASRLAR) 44-49

IQTISODIYOT FANLARI

Иногамова Наира

ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР УСКОРЕНИЯ ПРОГРЕССА ПО ЦЕЛЯМ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 50-54

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Diloromkhan

THE FUNCTIONAL ASPECT OF POLITICAL EUPHEMISMS IN DARI LANGUAGE
NEWSPAPER TEXTS 55-58

Akbarova Ma'suma

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY
TAHLILI 59-61

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI:
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL 62-67

YURIDIK FANLAR

Xushboqov Himoyiddin

KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARNI AUTENTIFIKATSIYA
QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI 68-74

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA
UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 75-78

Gulamov Shavkat

TALABALARDA ILMIY DALILASH VA LOGIK ARGUMENTATSIYA QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH 79-84

Yalgasheva Zilola

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING
USLUBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 85-87

Rasulova Dilafruzxon

XALQARO PEDAGOGIK ATAMALARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI 88-92

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Abdullayeva Shoxnoza Shokirovna

Ma'mun Universiteti NTM,

Tarix yo'nalishi magistratura talabasi

Email: shahnozaabdullayeva26@mail.com

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligida Komil Xorazmiy (1825–1899) tomonidan ixtiro qilingan va uning o'g'li Muhammad Rasul Mirzo tomonidan takomillashtirilgan «Tanbur chizig'i» nota yozuvi tizimi tahlil qilinadi. Bu tabulatura turidagi notalash tizimining tuzilishi, tanburning 17 ta pardasi va ochiq simiga mo'ljallangan 18 gorizontal chiziqdan iborat o'ziga xos arxitekturasi, doira usullarini ifodalashning grafik usullari, she'riy matnlar bilan integratsiyasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning 1925-yilda chop etilgan «Xorazm musiqiy tarixchasi» asari asosiy birlamchi manba sifatida qo'llaniladi. «Tanbur chizig'i»ning Xorazm olti yarim maqomini og'zaki an'anadan yozma an'anaga o'tkazishdagi ahamiyati, V.M. Belyaev, V.A. Uspenskiy, I. Rajabov, O. Matyoqubov singari musiqashunos olimlar tomonidan o'rganilishi va hozirgi kunda nomoddiy madaniy meros sifatidagi qadr-qimmatini yoritiladi.

Kalit so'zlar. Xorazm tanbur chizig'i, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, olti yarim maqom, tabulatura, nota yozuvi, og'zaki an'ana, Mulla Bekjon, musiqashunoslik.

KHOREZM TANBUR NOTATION — A UNIQUE MUSICAL NOTATION SYSTEM OF EASTERN MUSIC CULTURE AND ITS HISTORICAL SIGNIFICANCE

Abdullayeva Shoxnoza Shokirovna

Master's Student, Department of History,

Ma'mun University,

Urganch, Uzbekistan

Annotation. The article analyzes the «Tanbur notation» (Tanbur chizig'i) — a tablature-type system invented by Komil Khorazmi (1825–1899) and developed by his son Muhammad Rasul Mirzo in the Khanate of Khiva in the second half of the 19th century. The study examines the unique architecture of this notation, which is based on 18 horizontal lines corresponding to 17 frets and the open string of the tanbur, the graphic representation of doira (frame drum) usul patterns, and integration with poetic texts. Mulla Bekjon Rahmon og'li and Muhammad Yusuf Devonzoda's «Khorezm Musical History» (1925) is used as the principal primary source. The article highlights the role of Tanbur notation in the transition of the Khorezm six-and-a-half maqom cycle from oral to written tradition, its study by musicologists V.M. Belyaev, V.A. Uspenskiy, I. Rajabov, O. Matyakubov, and its current significance as intangible cultural heritage.

Keywords: Khorezm tanbur notation, Komil Khorazmi, Muhammad Rasul Mirzo, six-and-a-half maqoms, tablature, musical notation, oral tradition, Mulla Bekjon, musicology.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n05>

Kirish

Sharq musiqasi madaniyati tarixida nota yozuvini joriy etishga bo'lgan urinishlar bir necha ming yillik an'anaga ega. Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy kabi mutafakkirlar o'z risolalarida abjad tartibidagi harfiy belgilarga asoslangan turli nota tizimlarini taklif qilganlar. Biroq bu tizimlarning hech biri amaliyotda keng tarqalmadi. Markaziy Osiyo mumtoz musiqasi, jumladan maqom

an'anasi, asrlar davomida asosan og'zaki tarzda — «ustoz-shogird» metodi orqali avloddan-avlodga o'tib keldi.

Ana shu uzoq tarixiy kontekstda XIX asrning ikkinchi yarmida, aniqrog'i 1870–80-yillarda Xiva xonligida vujudga kelgan «Tanbur chizig'i» nota yozuvi alohida ahamiyatga ega. Bu tizim Sharq musiqashunosligida birinchi marta nazariy konsepsiyadan amaliy, samarali ishlovchi yozuv tizimiga aylangan tabulatura turidagi yagona namunadir. «Tanbur chizig'i» yordamida Xorazm olti yarim maqomining to'liq korpusi — chertim (cholg'u) va aytim (ashula) yo'llari bilan birga — yozma shaklga o'tkazildi, bu esa nafaqat Xorazm, balki butun o'zbek musiqa madaniyati tarixidagi muhim burilish nuqtasi bo'ldi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — «Xorazm tanbur chizig'i»ning paydo bo'lish tarixini, tizim sifatidagi tuzilishini va uning musiqashunoslik fanidagi o'rnini tahlil qilishdan iborat. Birlamchi manba sifatida 1925-yilda Moskvada chop etilgan, asl matni Xorazm shevasida bitilgan Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning «Xorazm musiqiy tarixchasi» asariga (1998-yilgi qayta nashri) tayanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

«Tanbur chizig'i» haqida birinchi yirik akademik xabar rus musiqashunosi V.M. Belyaev tomonidan 1923-yilda ingliz «The Sackbut» jurnalida e'lon qilingan [3]. 1925-yilda Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning «Xorazm musiqiy tarixchasi» asari Moskvada bosilib chiqdi va bu tizim haqidagi birlamchi manba sifatida ahamiyat kasb etdi [1; B.5]. Mualliflar mazkur risolada notaning ixtiro qilinish jarayonini, uning yaratuvchilari Pahlavoniyoz Mirzaboshi (Kamil Xorazmiy) va Muhammad Rasul Mirzo haqidagi ma'lumotlarni keltirganlar [1; B.12–15].

Sovet davrida bu mavzu V.A. Uspenskiy, I. Rajabov, F. Karomatov, T. Vizgo, Y. Romanovskaya, M. Yusupov singari olimlar tomonidan tadqiq etildi. Y. Romanovskayaning «Xorazm klassik muzikasi» (Toshkent, 1939) va M. Yusupovning «O'zbek xalq muzikasi» (6-jild, Toshkent, 1958) to'plamlari «Tanbur chizig'i»dan Yevropa nota yozuviga o'girilgan birinchi yirik nashrlardir [2; B.49–129]. Mustaqillik davrida bu yo'nalishdagi izlanishlar professor O. Matyoqubovning «Maqomot» (Toshkent, 2004) va u boshchiligidagi guruh tayyorlagan «Xorazm tanbur chizig'i» (Toshkent, 2010-yillar) kabi fundamental nashrlarda davom ettirildi [5].

Xalqaro miqyosda O. Matyakubov va H. Powers hamkorlikdagi «19th Century Khorezmian Tanbur Notation: Fixing Music in an Oral Tradition» («Yearbook for Traditional Music», 1990) maqolasi g'arb akademik doiralarida bu masalani ilk bor mukammal yoritgan [4]. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va matn tahlili metodlari, shuningdek, organologiya (cholg'u sozlari ilmi) yondashuvi qo'llanildi.

1. «Tanbur chizig'i»ning vujudga kelishi

Mulla Bekjon va Muhammad Yusuf Devonzoda Xorazm musiqasi tarixini bir necha davrlarga bo'lib ko'rsatadilar. «Tanbur chizig'i»ning paydo bo'lishi Muhammad Rahimxon Soniy — Feruz (1864–1910) hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davr Xorazm mumtoz musiqasining oltin asri sifatida tarixga muhurlandi. «Xorazm musiqiy tarixchasi»da bu davr haqida shunday yoziladi: Feruz saroyida 40 dan ortiq shoir va 20 ga yaqin yetuk maqomchi sozandalar to'plangan, doimiy mushoira va maqom kechalari o'tkazib turilgan [1; B.34].

Feruzning o'zi yetuk shoir, sozanda va bastakor edi. U Buxoro Shashmaqomi ta'sirida shakllangan Xorazm olti yarim maqom tizimini xalqning «daxlsiz mulki» deb e'lon qildi va

maqomlarni buzib ijro etganlarni qattiq jazolash haqidagi farmonni chiqardi. Aynan shu hukmron — sozandaparvar shaxs — «Tanbur chizig'i»ning paydo bo'lishida bevosita tashabbuskor bo'ldi.

Tarixiy-siyosiy jihatdan bu davrning yana bir muhim hodisasi 1873-yildagi Gandimiyon shartnomasi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi protektorati ostiga o'tishi edi. Aynan shu shartnomani xon tomonidan tayyorlagan kishi Komil Xorazmiy — bu davrda mirzaboshi, keyinchalik devonbegi lavozimida ishlagan davlat arbobi edi. U 1873 va 1883-yillarda Moskva va Sankt-Peterburgga safar qildi, 1880–1881-yillarda Xivada birinchi bosmaxonani tashkil etdi. Yevropa madaniyati bilan tanishish, bosmaxona ishini yo'lga qo'yish — bu ikki tajriba unga musiqani «yozma shakl»ga o'tkazish g'oyasini ilhomlantirgan bo'lishi tabiiy.

«Xorazm musiqiy tarixchasi»da Pahlavoniyoz Mirzaboshining ixtirosi shunday tasvirlanadi: u tanbur sozining oldindagi katta tofron (qo'yish joyi)ning ustiga o'rtacha bir buyrug'ini izoh berib, butun tanburchani bir nuqta — chiziq orqali tasavvur qilingan [1; B.13]. Aynan shu yondashuv — tanbur sozining fizik tuzilishini grafik tasvirga aylantirish — tabulatura tamoyilining tom ma'nodagi ifodasidir.

2. «Tanbur chizig'i»ning tuzilishi va belgilari

«Tanbur chizig'i» tabulatura turidagi nota yozuvidir. Yevropa nota tizimi — balandlikni mustaqil ramz orqali ifodalovchi (notalash) tizim bo'lsa, tabulatura — muayyan cholg'u sozining fizik tuzilishiga taqlid qiluvchi yozuv tarzidir. «Xorazm musiqiy tarixchasi»da tizimning asosiy elementlari quyidagicha keltiriladi [1; B.14]:

Birinchidan, tanburning 17 ta pardasi va bitta ochiq simiga mo'ljallangan 18 ta gorizontal chiziq tortiladi. Har bir chiziq tanburning muayyan pardasiga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, chiziq ustiga qo'yilgan nuqta — tanburning shu pardasida noxun (mizrob)ning *tepadan pastga* chertilishini, chiziq ostiga qo'yilgan nuqta — *pastdan tepaga* chertilishini bildiradi.

Uchinchidan, doira usullari maxsus bo'g'in-belgilar bilan ko'rsatiladi: «gul» — kuchli zarb, «taq» — chorak zarb, «taqa» — ikki nimchorak, «takqa» — pauza. «Xorazm musiqiy tarixchasi»da har bir maqom uchun bu bo'g'inlarning o'zaro kombinatsiyalaridan tarkib topgan ko'plab usul formulalari keltiriladi (masalan, Tarjeyi maqomi Rost usuli: «gul-taq-gul», Pesharavi Rost usuli: «gul-taq-tak, taq-gul» va h.k.) [1; B.22–23].

To'rtinchidan, kuy bo'laklari — «xona», «bozgo'y» (qaytariq), «hang» (pauza), to'xtovlar yoy chizig'i (strelka) shaklidagi ishoralar yordamida belgilanadi.

Beshinchidan, she'riy matnlar — g'azalning matlasi yoki ayrim lavhalari notaga nisbatan alohida joyga yoziladi. Bu xususiyat «Tanbur chizig'i»ni shunchaki cholg'u yozuviga emas, balki *vokal-instrumental sintezni ifodalovchi yozuvga* aylantiradi.

Tanbur notasining yana bir o'ziga xos jihati — uning arab yozuvi singari o'ngdan chapga o'qilishidir. Bu xususiyat tizim mahalliy yozuv an'anasiga ma'lum tarzda moslashtirilganligini ko'rsatadi va uning shu yerlik musiqachilar uchun amaliy qulayligini ta'minlagan.

3. Notalashtirilgan repertuar va olti yarim maqom tizimi

«Tanbur chizig'i» orqali yozib olingan asosiy musiqiy korpus — Xorazm olti yarim maqomi tizimidir. «Xorazm musiqiy tarixchasi»da bu tizim quyidagicha tavsiflanadi [1; B.15]:

1. Maqomi Rost — 11 ta Mansura va 19 ta Manzuma;

2. Maqomi Buzruk — 10 ta Mansura va 13 ta Manzuma;
3. Maqomi Navo — 9 ta Mansura va 25 ta Manzuma;
4. Maqomi Dugoh — 6 ta Mansura va 32 ta Manzuma;
5. Maqomi Segoh — 2 ta Mansura va 25 ta Manzuma;
6. Maqomi Iroq — 12 ta Mansura;
7. Maqomi Panjgoh — 8 ta Mansura (yarim maqom).

Aynan ettinchi maqom — *Panjgoh* — to'liq emas, mansuralari boshqa maqomlardan olingani sababli «yarim maqom» deb ataladi. Shundan butun tizim «olti yarim maqom» nomi bilan tarixga kirgan [1; B.16].

Bundan tashqari, «Tanbur chizig'i» yordamida *Dutor maqomlari* — milliy Xorazm an'anasidagi alohida cholg'u turkumi (Iroq, Chapandoz, Mug'ulcha, Navoyi, Sadri Iroq, Rovi) ham notalash tirilgan [1; B.25]. Bu repertuar Buxoro Shashmaqomida uchramaydigan, sof Xorazm musiqa madaniyatiga xos hodisadir.

Mulla Bekjon va Devonzoda ta'kidlashicha, Komil Xorazmiyning o'zi faqat «Rost» maqomining boshlanish qismini (asosan Murabbai Komil va Pesharavi Feruz nomli kuylar) yozib ulgurgan, qolgan ulkan ishni — barcha olti yarim maqomning chertim va aytim yo'llarini, doira usullarini xatga tushirishni — uning o'g'li Muhammad Rasul Mirzo amalga oshirgan [1; B.31]. «Tanbur chizig'i» kitobi ikki ulkan jilddan iborat bo'lib, hozirgi kunda ham Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

4. Tizim ijodkorlari: Komil Xorazmiy va Muhammad Rasul Mirzo

Komil Xorazmiy (1825–1899) — taxallus; asl ismi Muhammadniyoz Mirzaboshi Abdulla Oxund o'g'lidir. U Xiva shahrida tug'ilgan, madrasada ta'lim olgan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Komilning faoliyati ajoyib darajada *ko'p qirrali* edi: shoir, xattot, musiqashunos, tarixchi, tarjimon, davlat arbobi. U Muhammad Rahimxon Soniy saroyida mirzaboshi va devonbegi lavozimlarida xizmat qilgan, Sayid Muhammadxon davridan boshlab kotiblik ishlarini olib borgan.

Komil Xorazmiyning Moskva va Sankt-Peterburgga ikki marta safari (1873, 1883), shuningdek Xivada birinchi bosmaxonani tashkil etishi (1880–1881) uning musiqani yozma shaklga o'tkazish g'oyasini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan deyish mumkin. Yevropa nota yozuvini va kitob bosish texnologiyasini ko'rgan zamondoshlardan biri sifatida u milliy musiqani saqlab qolishning yangi vositasini qidirgan.

Muhammad Rasul Mirzo (Mirzaboshi, 1840–1922) — Komil Xorazmiyning o'g'li, otasidan faqat 15 yosh kichik, otaning ishini davom ettiruvchi yetuk musiqashunos, shoir va davlat arbobi. U Pahlavoniyoz Mirzaboshi nomi bilan ham mashhur. Otasining vafotidan keyin u nafaqat «Tanbur chizig'i»ni takomillashtirib, butun olti yarim maqom korpusini xatga tushirgan, balki 1906-yilda *doira usullari uchun maxsus zarbiy nota yozuvini* ham yaratgan. Bu unga Buxoro Shashmaqomi an'anasidan farqli o'laroq, Xorazm maqomlarini *to'liq audio-tasvirini* qog'ozga muhrlash imkonini bergan.

5. «Tanbur chizig'i»ning tarixiy va madaniy ahamiyati

«Tanbur chizig'i»ning birinchi va eng muhim tarixiy ahamiyati — u Sharq musiqasida amaliy qo'llanma topgan birinchi nota yozuvi tizimi bo'lganligidadir. Forobiy va Ibn Sinodan boshlangan abjad va boshqa harfiy notalar ko'proq nazariy risolalar bilan chegaralangan bo'lsa, «Tanbur chizig'i» bevosita ijro amaliyotiga kirgan, ustoz-shogird tizimida yordamchi vosita sifatida XX asrning 40-yillariga qadar ishlatilgan [4].

Ikkinchidan, bu tizim og'zaki an'anani yozma an'anaga ko'chirishning o'zbek-xorazm modeli sifatida noyobdir. Asrlar davomida xotira va eshitish orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan murakkab maqom kompozitsiyalari birinchi marta moddiy hujjat shaklini oldi. Bu — keyinchalik V.A. Uspenskiyning 1923-yili Buxoro Shashmaqomini Yevropa notasiga o'girish ishiga zamin yaratdi: A. Fitrat va V. Uspenskiy ishlagan metodning nazariy ildizlari aynan «Tanbur chizig'i» tajribasiga borib taqaladi [6].

Uchinchidan, «Tanbur chizig'i» — butunlay milliy (importga aloqasi yo'q) ilmiy-texnik ixtirodir. U Yevropa nota yozuvini taqlid qilib emas, balki tanbur sozining o'ziga xos texnik xususiyatlaridan kelib chiqib yaratilgan. Tahliliy nuqtai nazardan, bu tabulaturalari XVI–XVII asrlardagi Yevropa lyutnya tabulaturalari bilan tipologik jihatdan taqqoslash mumkin. Biroq Xorazm tabulaturasining boy zarbiy yozuvi va she'riy matn bilan birikkanligi uni boshqalardan ajratib turadi.

To'rtinchidan, «Tanbur chizig'i» orqali yozilgan manbalarning *qarib o'ttiztaga yaqin nusxasi* bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Ular orasida atoqli Buxoro tanburchisi Ota G'iyos Abdug'aniy (1859–1927)ga tegishli bo'lgan nusxa ham bor [4]. Bu — tizimning Xorazm chegarasidan tashqariga ham yoyilganini ko'rsatadi.

Beshinchidan, hozirgi davrda «Tanbur chizig'i» nafaqat tarixiy yodgorlik, balki *jonli amaliyot* sifatida ham qayta tiklanmoqda. Urganch davlat universiteti professorlari R. Boltayev, B. Rahimov, S. Xudaybergenov, professor O. Matyoqubov hamda Davlat konservatoriyasining maxsus tadqiqot markazi bu manbalarni shifrlash, o'rganish va talabalarga o'rgatish bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirmoqdalar. 2010-yillarda Toshkentdagi Milliy san'at markazida «Xorazm tanbur chizig'i» kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi va Munajat Yo'lchiyeva, Abduxoshim Ismailov singari taniqli ijodkorlar bu nota asosida ijrolar ko'rsatdilar [7].

Nihoyat, 2008-yilda Shashmaqom UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi. Xorazm maqomlari va ularning yagona yozma manbasi bo'lgan «Tanbur chizig'i» bu meros tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida xalqaro maydonda e'tirof etilmoqda.

Xulosa

«Xorazm tanbur chizig'i» — Sharq musiqa madaniyati tarixidagi ajoyib hodisalardan biridir. Komil Xorazmiy tomonidan ixtiro qilingan va Muhammad Rasul Mirzo tomonidan takomillashtirilgan bu tabulatura turidagi nota yozuvi: birinchidan, butun olti yarim maqom korpusi va dutor maqomlari kabi ulkan musiqiy meros qatlamini yozma shaklda saqlab qoldi; ikkinchidan, Sharq musiqashunosligida *nazariydan amaliyga* o'tishning birinchi muvaffaqiyatli namunasini ko'rsatdi; uchinchidan, V.M. Belyaev, V.A. Uspenskiy, F. Karomatov, O. Matyoqubov singari yirik olimlar ishlari uchun manba bazasini ta'minlab berdi.

Bugungi musiqashunoslik, san'atshunoslik va kulturologiya nuqtai nazaridan «Tanbur chizig'i»ning qadr-qimmatini uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: u *manbashunoslik* jihatidan Xorazm maqomlarining ilk avtoritetli yozma hujjati; *organologiya* jihatidan tanbur sozi va ijrochilik texnikasi haqida noyob ma'lumotlar yig'indisi; *madaniy meros* jihatidan esa milliy o'zlik va madaniy davomiylikning yorqin ko'rsatkichidir.

Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning «Xorazm musiqiy tarixchasi» asari mazkur tizim haqidagi birlamchi va eng to'liq manba sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bu asarning qayta-qayta nashr etilishi (1925, 1993, 1998) va zamonaviy

ilmiy muomalaga kiritilishi Xorazm musiqa madaniyatini chuqurroq o'rganishga, milliy musiqashunoslik fanini boyitishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. — Toshkent: «Yozuvchi» nashriyoti, 1998. — 46 b.
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. — Toshkent-Samarqand, 1927; Qayta nashr: — Toshkent: «Fan», 1993. — 49-129-b.
3. Belyaev V.M. Khorezmian Notation // The Sackbut. — London, 1924.
4. Matyakubov O., Powers H. 19th Century Khorezmian Tanbur Notation: Fixing Music in an Oral Tradition // Yearbook for Traditional Music. — Vol. 22, 1990. — P. 29-35.
5. Matyoqubov O. Maqomot. — Toshkent: «Musiq», 2004.
6. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1963. — 128-129-b.
7. New life of Khorezm maqoms // UzDaily. — URL: <https://www.uzdaily.uz/en/post/10664/> (murojaat sanasi: 25.05.2026).
8. Shashmaqam — Music and Poetry of Central Asia // Voices on Central Asia. — URL: <https://voicesoncentralasia.org/shashmaqam-music-and-poetry-of-central-asia/> (murojaat sanasi: 25.05.2026).
9. Khoresm Maqoms // Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan. — URL: <http://ich.uz/en/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-2/263-khoresm-maqoms> (murojaat sanasi: 25.05.2026).
10. Tanbur chizig'i // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. — URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanbur_chizig'i (murojaat sanasi: 25.05.2026).
11. Раджапов, Мардонбек. "История развития искусства бахши в Хорезмском оазисе." Общество и инновации 2, no. 2/S (2021): 591-595.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil). – 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.